

TARBIYA FANINI O`QITISHDA YANGI PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNI QO`LLASH VA UNDA TA`LIM TARBIYANING UZVIYLIGI

Shahrisabz davlat pedagogika instituti o`qituvchisi

Milnorov Xusniddin Xushmatovich

Shahrisabz davlat pedagogika instituti Pedagogika

fakulteti pedagogika yo`nalishi 2-kurs talabasi

Tursunova Mohinur

Annotatsiya: Mazkur maqolada tarbiya fanini zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida o`qitish yo`llari, ta`lim va tarbiyaning uzviyligi, interfaol metodlar orqali o`quvchining shaxsini har tomonlama rivojlantirish masalalari yoritilgan. Shuningdek, innovatsion yondashuvlar orqali tarbiyaning ta`lim jarayonidagi o`rni ko`rsatib beriladi.

**Kalit so`zlar:** tarbiya, pedagogik texnologiyalar, interfaol metodlar, uzviylik, ta`lim, ajdodlar merosi. Prezidentimiz Oliy Majlis va O`zbekiston xalqiga navbatdagi murojaatnomasi

Абстрактный: В статье рассматриваются пути организации обучения на основе современных педагогических технологий, преемственности образования и воспитания, всестороннего развития личности обучающегося посредством интерактивных методов. Он также демонстрирует роль образования в образовательном процессе посредством инновационных подходов.

Ключевые слова: воспитание, педагогические технологии, интерактивные методы, преемственность, образование, родовое наследие. Очередное Послание Президента Олий Мажлису и народу Узбекистана

Abstract: This article discusses the ways of teaching education based on modern pedagogical technologies, the continuity of education and upbringing, the issues of comprehensive development of the student's personality through interactive methods. It

also shows the role of upbringing in the educational process through innovative approaches.

Keywords: upbringing, pedagogical technologies, interactive methods, continuity, education, ancestral heritage. The next address of the President to the Oliy Majlis and the people of Uzbekistan

Kirish: Bugungi kunda jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi ta'lim tizimiga yangicha yondashuvlarni talab qilmoqda. Ayniqsa, tarbiya fani orqali yosh avlodni ma'naviy yetuk, vatanparvar, bilimli va barkamol shaxs qilib tarbiyalashda zamonaviy pedagogik texnologiyalar muhim o'rin tutadi. Ta'lim va tarbiya uzviy bo'lib, ular bir-birini to'ldiradi va mustahkamlaydi.

Hozirgi kunda, fan-texnika taraqqiyoti innovatsion jamiyatga bo'lgan ehtiyoj yoshlar uchun ko'plab imkoniyatlar yaratmoqda. Ular oldiga tezkor qaror qabul qilish, innovatsion tafakkurni shakllantirish, intellektual salohiyatni oshirish bilan birga milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiq bo'lish hayotiy talablarni qo'ymoqda. Shu bois, O'zbekiston Respublikasida „Tarbiya“ fani konsepsiyasi mazkur fanni davlatning ta'lim-tarbiya sohasidagi siyosatini amalga oshirishda mavjud bo'lgan dolzarb muammolarni hal etishga yo'naltiriladi. Konsepsiyada belgilangan vazifalar O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi talablari, uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasi, milliy va jahondagi ilg'or tajribalar mamlakatimizdagi ijtimoiy siyosiy o'zgarishlar bilan uyg'un ravishda amalga oshiriladi. Shiddat bilan o'zgarayotgan dunyoda o'quvchi-yoshlarni muvaffaqiyatli ijtimoiy hayotga tayyorlashda mas'uliyat, majburiyat kabi fazilatlarni shakllantirish kun tartibidagi asosiy masalalarga aylanib bormoqda. Tarbiya-shaxsda jismoniy, aqliy, ruhiy, axloqiy va ma'naviy sifatlarni shakllantirishga qaratilgan pedagogik jarayondir. Tarbiya insonning insonligini ta'minlaydigan eng qadimiy va abadiy qadriyatdir. Ushbu Tarbiya fani maktablarda „Milliy g'oya“ „Odobnoma“ „Dinlar tarixi“ „Vatan tuyg'usi“ kabi fanlar yagona Tarbiya fani sifatida joriy etildi.

Tarbiya fanini o`qitishda ta`limga texnologiyalarni joriy etish, o`qitishning sifat-samaradorligini ta'minlash, qisqa vaqt ichida ko'proq ma'lumot yetkazish, o`qituvchi va o`quvchi o'rtasidagi axborot almashinuvini tezlashtirish va amaliy faoliyatning samaradorligini ta'minlash imkoniyatini beradi.

Yangi pedagogik texnologiyalar — bu o`quvchilarning mustaqil fikrlashini, ijtimoiy faolligini, muammolarni hal etish ko`nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan, ilg`or usullar majmuasidir. Masalan, klaster texnologiyasi, “aqliy hujum”, interfaol metodlar, loyihaviy ishlar, rolli o`yinlar va raqamli platformalar orqali ta`lim jarayoni samarali tashkil etiladi.

Tarbiya fani faqat nazariy bilim berish emas, balki o`quvchining axloqiy-estetik qarashlarini, vatanparvarlik va fuqarolik burchini anglashga xizmat qilishi kerak. Bunda quyidagi yondashuvlar muhim:

Interfaol usullar – muammoli savollar, guruhlarda ishlash, holatli tahlil (case study) orqali o`quvchilar faollashtiriladi.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari – multimedia vositalari, videoroliklar, taqdimotlar tarbiya mavzularini yanada ta'sirchan qiladi.

Loyihaviy yondashuv – o`quvchilar ijtimoiy loyihalarda ishtirok etib, mas'uliyat va ijtimoiy faollikni o`rganadilar.

Ta`lim va tarbiyaning uzviyligi juda muhim ahamiyat kasb etadi. Ta`lim – bilim berish jarayoni bo`lsa, tarbiya – insoniy fazilatlarni shakllantirishdir. Ular ajralmas bog`liqlikda bo`lib, birini ikkinchisiz tasavvur etib bo`lmaydi. Har bir darsda tarbiyaviy maqsadlar ham ko`zda tutilishi kerak. Masalan, ona tili darsida milliy qadriyatlar, tarix darsida vatanparvarlik tarbiyasi berilishi mumkin.

Ta`kidlash joyizki ma`naviyat – ma`rifat, ta`lim- tarbiya hech qachon bir birini inkor etmaydigan tushunchalar hisoblanadi. Aksincha, ular bir birini to`ldirib boradi. Bu esa insonlarda komillik darajasiga yetib borishiga zamin yaratadi. Bugungi kunga kelib yurtimizda ta`lim va tarbiyani yoshlar ongiga birdek singdirish, ularni o`zlarini anglash tuyg`usini tarbiyalash, ajdodlarimizdan qolgan moddiy va ma`naviy merosning

nechog`lik ahamiyatliligini , ular bilan faxrlanish, g`ururlanish hissini kuchaytirishdan iborat. Shu o`rinda sifatli ta`limdan ko`zlangan asosiy maqsad ajdodlarimizning qanday buyuk shaxslar bo`lganini, ilm -fanning turli sohalarida qanday buyuk kashfiyotlar yaratishganini va shu orqali jahon sivilizatsiyasiga ulkan hissa qo`shganliklarini, shuning uchun mintaqamiz hududi qadimda dunyo taraqqiyotining yirik o`choqlaridan biri bo`lganini anglatish, ularning ushbu merosga sadoqatini yanada oshirishdan iborat. Prezidentimiz Oliy Majlis va O`zbekiston xalqiga navbatdagi murojaatnomasida ta`kidlaganidek, «Najot — ta`limda, najot — tarbiyada, najot — bilimda. Chunki, barcha ezgu maqsadlarga bilim va tarbiya tufayli erishiladi». Ma`rifatparvar jadid bobolarimizning bu so`zlari deputat va senatorlarimiz, siyosiy partiyalar, mahalliy kengashlar, butun davlat apparati, keng jamoatchilikning amaliy harakatiga aylanishi kerak.

Shunday ekan biz ham yoshlarga ta`lim tarbiya berishda ularga yaratib berilayotgan imkoniyatlardan samarali va unumli foydalanishlari uchun ko`makchi bo`lishimiz kerak. Zero bu bugungi globallashuv zamonida eng muhim jihatlardan biridir.

Xulosa: Yangi pedagogik texnologiyalar tarbiya fanida o`quvchilarning faol ishtirokini ta`minlaydi, ularning ongli ravishda axloqiy me`yorlarni qabul qilishlariga yordam beradi. Shu bois, o`qituvchilar doimiy ravishda o`z ustida ishlashi, yangiliklarni amaliyotga joriy etishi lozim. Ta`lim va tarbiyaning uzviyligi esa yosh avlodni har tomonlama yetuk shaxs sifatida tarbiyalashning asosiy omilidir.

Foydalanilgan Adabiyotlar

1. Xusniddin, Milinorov, and Mavlonova Malika. "Bo`lajak o`qituvchilarni kasbiy-pedagogik tayyorlash jarayonida kommunikativ kompetentsiyalarini rivojlantirish metodikasi." *Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi* 7 (2024): 296-304.
2. Xushmatovich, Milinorov Xusniddin. "Pedagogik faoliyat jarayonida bo`lajak pedagoglarni raqamli texnologiyalardan foydalanish samaradorligini oshirish." *Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi* 7 (2024): 305-312.

3. Милиноров, Хусниддин Хушматович, and П. М. Жалолова. "ПРОЦЕСС ОРГАНИЗАЦИИ РАЗВИТИЯ КОМПЕТЕНЦИЙ В ВЫСШЕЙ ШКОЛЕ." *Proceedings of International Conference on Modern Science and Scientific Studies*. Vol. 3. No. 5. 2024.

4. Anatolyevna, Boyarkina Yulia, Sokhibov Akram Rustamovich, and Milinorov Khusniddin Khushmatovich. "EDUCATIONAL TOURISM AS A POTENTIAL FOR THE DEVELOPMENT OF THE REGION." *Web of Teachers: Inderscience Research* 2.6 (2024): 185-189.

5. Milinorov, XX va DN Eshmuratova. "O'ZBEK URNAVALARI, MAROSIMLARI VA ODAMLARINI SHAXS TARBIYOTIDAGI O'RNI". *Web of Teachers: Inderscience Research* 2.5 (2024): 205-209.

6. Djamalov A. Raqamli pedagogika asoslari. – Toshkent: "Innovatsiya", 2023

7. .Khamraeva, M. (2019). Tarbiya fani va uning o'quvchilarga ta'siri. *Journal of Pedagogical Sciences*, 45(2), 30-35.